

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN  
TUPROQSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TUPROQSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Tuproqshunoslik talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Tuproqshunoslik**

1. Tuproq morfologiyasi;
2. Tuproq fizikasi;
3. Tuproq kimyosi;
4. Tuproq biologiyasi;
5. Tuproq muhofazasi.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Tuproq morfologiyasi	Tuproqshunoslik fani, tarixi, tuproq namunalari tuproq kesmalari, tuproq tiplari, tuproq paydo bo'lishida moddalarning katta geologik va kichik biologik aylanishini, tuproq profilining tuzilishi va morfologik belgilarini, tuproq va tuproq paydo qiluvchi jinslarning granulometrik tarkibini, tuproq paydo qiluvchi jins va yotqiziqslarning asosiy turlarini talqini haqida tushunchalarni bilishi	12 ta
2	Tuproq kimyosi	Tuproq kimyosining nazariy asoslari, tuproq chirindisi haqida, tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi va ularning yechimini hal etish, organomineral birikmalarning hosil bo'lishini hamda tuproqdagi kimyoviy, biokimyoviy jarayonlar ahamiyatini va ular orasidagi muvozanatini har tomonlama va chuqur o'rgatish yo'llari haqida bilishi.	6 ta
3	Tuproq fizikasi	Tuproqning mexanik tarkibi, fizik-mexanik xossalari, tuproq strukturasi yaxshilash, tuproqlarning suv va issiqlik rejimini mo'tadillashtirish usullari bilan tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish bo'yicha agrotexnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tuproq va havo iqlimlarning o'zaro bog'liqligining ilmiy asoslari, inson faoliyati havoning pastki va tuproqning ustki qatlami iqlimiga o'zaro bog'liqliligining oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	12 ta
4	Tuproq biologiyasi	Tuproq biologiyasining nazariy asoslari, tuproq yashovchi bakteriyalar haqida, jarayonlar ahamiyatini va ular orasidagi muvozanatini har tomonlama va chuqur o'rgatish yo'llari haqida bilishi.	4 ta
5	Tuproq muhofazasi	Tuproq muhofazasi nazariy asoslari, tuproqlarning turli chiqindilardan unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish bo'yicha agrotexnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, inson faoliyati havoning pastki va tuproqning ustki qatlami ifloslanishi bog'liqliligining oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt me'yori

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. P. Uzoqov, Sh. Holiqulov, I.Boboxo‘jayev TUPROQSHUNOSLIK darslik Toshkent – 2010
2. Boboxo‘jayev I., Uzoqov P.- «Tuproqshunoslik», Mehnat, T.1995
3. Xoliqulov SH., Uzaqov P., Boboxo‘jayev I - «Tuproqshunoslik», Mehnat, T. 2013 y.
4. Sodiqova G.S. Tuproqshunoslik. “NIF MSH”, Toshkent 2024 y.

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*